

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 4-oktabr, № 203 (8826) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘zbekiston Respublikasining QONUNI

Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 30-sentabrda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi kreativ iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish va ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonunchilik

Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

kreativ industriya – ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek intellektual mulk ustuvorligiga asoslangan va iqtisodiy qimmatga ega bo‘lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlarining majmui;

kreativ industriya parki – O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida eksterritoriallik prinsiplari asosida kreativ industriya sohalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida faoliyat olib boradigan tashkiliy-huquqiy tuzilma;

(Davomi 2-betda).

Anjuman

POYTAXTIMIZDA VIII BUTUNJAHON PAXTA TADQIQOT KONFERENSIYASI ISH BOSHLADI

Mamlakatimizda paxta yetishtirish va uni qayta ishlashda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sohani erkin raqobatni ta’minlovchi bozor tamoyillari asosida rivojlantirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadida klaster tizimi joriy etildi va paxta yetishtirishda davlat buyurtmasi bekor qilinib, erkin bozor tamoyillariga o‘tildi. Buning samarasi o‘laroq yurtimizda paxta yig‘im-terimida bolalar mehnati va majburiy mehnatga chek qo‘yildi. Natijada 2021-yilda “Cotton Campaign” koalitsiyasi tomonidan O‘zbekiston paxtasiga boykot bekor qilindi.

Poytaxtimizda ilk bor o‘z ishini boshlagan VIII Butunjahon paxta tadqiqot konferensiyasi va uning doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlar ham mana shu hayotbaxsh islohotlarning amaldagi tasdig‘idir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, 2022-yilda Misrda o‘tkazilgan VII Butunjahon paxta tadqiqot (WCRC – 7) konferensiyasi yakunida ushbu nufuzli anjumanning navbatdagisini 2024-yilda O‘zbekistonda o‘tkazish tashabbusi xalqaro nufuzli kompaniya va yetakchi ekspertlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangan edi.

Ana shu tashabbus va 7-oktabr – Butunjahon paxta kuni oldidan o‘tkazilayotgan VIII Butunjahon paxta tadqiqot konferensiyasi (WCRC – 8) joriy yilning 7-oktabriga qadar davom etadi. Bu anjuman paxta tadqiqotchilari uyushmasi (ICRA), Xalqaro paxta bo‘yicha maslahat qo‘mitasi (ICAC) va Xalqaro paxta genomi tashabbusi (ICGI) tashkilotlari bilan birgalikda o‘tkazilmoqda. Unda g‘o‘za tadqiqotlari sohasidagi 430 nafardan ortiq xalqaro olimlar hamda 200 nafarga yaqin mahalliy olimlar, shuningdek, 177 ta paxta-to‘qimachilik klasteri va korxonalari rahbarlari qatnashmoqda.

Anjumanning rasmiy ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorov ishtirok etdi va bugungi global iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi sharoitida paxtachilik sohasidagi dunyo olimlarining Toshkentda



yig‘ilishi muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlab o‘tdi. Shuningdek, tadbirda xorijlik paxtachilik sohasi olimlari, yetuk ekspert hamda kompaniya rahbarlari so‘zga chiqib, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda paxta genetikasi, genomikasi va urug‘chilik sohasidagi so‘nggi yutuqlar haqida fikr bildirdi.

– Yangi O‘zbekiston tarixida ilk bor xorijdan, xususan, Xitoy, Turkiya, Hindiston, AQSh, Ispaniya, Tojikiston va Qirg‘izistondan 2,5 ming tonna yuqori hosildor, qurg‘oqchilikka va sho‘rga chidamli, hosildorligi gektariga 60 – 70 sentner, tola chiqimi 42 foizdan yuqori bo‘lgan 18 ta g‘o‘za navi karantin talablari asosida olib kelindi va 100 ming gektar maydonga ekildi, – dedi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov. – Zamonaviy va xorijiy agrotexnologiyalarni joriy etish maqsadida Xitoydan 50 nafar konsultant va seleksioner-agrotexnolog olim jalb qilindi. Shuningdek, 12 ming gektar maydonda Xitoy agrotexnologiyasi joriy etildi. Eng muhimi, O‘zbekistonda yaratilayotgan istiqbolli g‘o‘za navlari bugungi o‘zgaruvchan iqlim sharoitiga bardoshli va serhosildir.

4

SAYLOV – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo‘yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi nomidan “Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti – kuchli ijtimoiy siyosatning asosi” sarlavhali maqola e’lon qilinmoqda.

3-саҳифага қаранг.

O‘zbekiston mahalla tizimi dunyo nigohida

Samarqand shahridagi “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro turizm majmuasida Prezidentimizning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” g‘oyasi asosida “Mahalliy aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni” mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazilmoqda. Unda BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, UNICEF, UNDP, UNODC, UNFPA, USAID kabi xalqaro tashkilotlar vakillari, xorijiy mamlakatlarning yurtimizdagi elchilari, chet ellik va mahalliy ekspertlar, mahalla faollari qatnashmoqda.

Hamkorlik

Anjuman avvalida mahalla tizimini keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tomonidan tayyorlangan milliy mahalla tizimi faoliyatini aks ettiruvchi maxsus hujjatli film namoyish qilindi.

Xalqaro konferensiyaning yalpi majlisida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari Akmal Saidov, BMTning O‘zbekistondagi doimiy koordinatori Sabine Mahl, USAIDning mamlakatimizdagi missiyasi rahbari Devid Xofman, Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi raisi Malika Qodirxonova mazkur tadbirning ahamiyati va undan kutilayotgan natijalar, mamlakatimizda o‘zini o‘zi boshqarish institutlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda “mahalla yettiligi”ning maqsad va vazifalari haqida so‘z yuritdi.

Mazkur xalqaro konferensiyadan ko‘zlangan maqsad – mahalla instituti va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasini xorijda keng targ‘ib etish, bu borada chet davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, o‘zaro hamkorlik o‘rnatishdan iborat.

– Bugun mahalla ijtimoiy hayotimizning barcha jabhasida faol ishtirok etyapti. Tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish – barcha-barcha masalada mahallaning ishtiroki bor. Pirovard maqsad aniq: aholiga munosib turmush sharoitini yaratish, – dedi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev. – Birgina kambag‘allikni qisqartirish borasida boshlangan xayrli tashabbuslar bugun o‘z mevasini berayotganini aytib o‘tish o‘rinli. O‘tgan yillarda 3,5 million nafar odamni daromadli qilish orqali 2023-yil yakuni bilan kambag‘allik darajasi 11 foizga tushdi. Ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra kengaytirilib, o‘tgan yili 12,3 trillion so‘m yo‘naltirildi.

4

Senat qo‘mitasida



“YO‘L XARITASI” IJROSI QONIQARLIMI?

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi majlisida “Inson a’zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning ijro holati muhokama qilindi.

Majlisda senatorlar, ekspertlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tegishli doimiy komissiyalari raislari, vazirlik, idoralar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Qayd etilganidek, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgan. Masalan, 2024-yil 13-iyunda Vazirlar Mahkamasining “Inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya qilish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi qarori hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining qator buyruqlari qabul qilingan.

Shu asosda respublika tibbiyot muassasalari donor va retsipiyentlarni transplantatsiya amaliyotiga tayyorlash uchun immunogenetik analizator hamda reagentlar bilan ta’minlangan.

Majlisda senatorlar tomonidan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan ayrim vazifalar bajarilmaganiga ham alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, hududlarda donor va retsipiyentlarni transplantatsiyaga tayyorlash hamda undan keyingi muolajani va kuzatuvni olib boradigan mas’ul shaxs hamda tibbiy psixologlarga ish o‘rni ajratilmagan. Hududlarda donor va retsipiyentlarni transplantatsiyaga tayyorlash hamda undan keyingi davolanishi uchun amaldagi o‘rinlar doirasidagi koykalarni (kamida 10 ta) byudjet hisobidan ajratish masalasi ham hal qilinmagan.

Qolaversa, Onkogematologik va davolash qiyin bo‘lgan kasalliklarga chalingan bemorlarni sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘i hisobidan maxsus kompleks amaliyot binosini qurish va jihozlash ishlari yakuniga yetkazilmagan.

Shuningdek, oliy tibbiy ta’lim muassasalari talabalariga murda bilan ishlashga ruxsat berish bo‘yicha aniq choralar belgilanmagan.

O‘z navbatida, majlisda inson a’zolari transplantatsiyasi sohasini takomillashtirish bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralar rahbarlarining axborotlari eshitildi. Senatorlar tomonidan sohada mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

Majlis yakunida ko‘rilgan masala bo‘yicha Senat qo‘mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

MAKTAB — ILM MANBAI, MA’RIFAT MASKANI

Rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tarixiga e’tibor qaratsak, ularning qariyb barchasida ilk davrlardanoq ta’limga jiddiy ahamiyat berilganiga guvoh bo‘lamiz. Bu to‘g‘ri tanlangan yo‘l ekanini hayotning o‘zi ham namoyon etyapti. Ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligi esa, eng avvalo, o‘qituvchi mehnatini qadrlash, uni munosib rag‘batlantirishga bog‘liq.

Dil so‘zi


Shukrki, o‘qituvchi o‘z kasbiy vazifalari bir chetda qolib, qishloq xo‘jaligi ishlarida va boshqa turli targ‘ibot kampaniyalarida beminnat dastyor sifatida foydalaniladigan, majburiy mehnatning ko‘chalarni tozalash, paxta yig‘im-terimi kabi turli ko‘rinishlariga jalb etiladigan zamonlar tarixda qoldi. Bugun o‘qituvchining sha’ni, qadr-qimmati ulug‘lanib, uning mehnati moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilmoqda.

Prezidentimizning kasb bayramimiz oldidan soha vakillari bilan o‘tkazgan muloqotida ishtirok etib, yaqin kelajakda O‘zbekistonda eng obro‘li inson muallim bo‘lishiga yana bir bor amin bo‘ldim. Davlat rahbarining ta’lim-tarbiya sohasida oldimizda turgan dolzarb vazifalar, jumladan, yangi zamon kishisini, yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalaydigan har bir o‘qituvchi va murabbiy ma’lum ma’noda strateg bo‘lishi, uzoqni ko‘zlab ish olib borishi lozimligi to‘g‘risidagi fikrlari biz – soha xodimlari zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi.

Ayniqsa, soha xodimlari mehnatini munosib rag‘batlantirish, jumladan, xalqaro standartlar asosida malaka sertifikati sinovida 86 va undan yuqori ball olgan o‘qituvchilarning oylik maoshiga 70 foiz ustama to‘lash, sanatoriy va dam olish maskanlariga yuboriladigan o‘qituvchilar sonini 2 barobar oshirish, 208 ta shahar va tumanda “Yil o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovi g‘oliblariga Prezident sovg‘asi sifatida uy berish to‘g‘risidagi takliflar muloqot ishtirokchilari tomonidan gulduros qarsaklar bilan kutib olindi.

Ushbu uchrashuvdan bir olam taassurotlar, yangi g‘oya va rejalar bilan chiqdik. Eng hayajonlisi, qutlug‘ bayram arafasida Yurtboshimiz qo‘lidan “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvonini qabul qilib olganim bo‘ldi. Mening kamtarona mehnatim bu qadar yuksak baholanganidan quvonchimning cheki yo‘q. Bu yuksak e’tirof meni yosh avlod ta’lim-tarbiyasi yo‘lida yana ko‘proq izlanishga da’vat etadi, g‘ayrat bag‘ishlaydi.

Ixtiyor MATMURATOV,
Shovot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi.



MILLAT TANLAMAGAN QABOHAT

Tarixning mash’um kunlari har birimizni hushyorlikka va xulosa chiqarishga undaydi

Bugun o‘tgan asrga nigoh tashlarkanmiz, ilm-fan, tibbiyot, texnika va boshqa juda ko‘plab sohalardagi yutuqlarga qaramasdan u ikki jahon urushining ro‘y bergani, atom qurolining qo‘llanishi, mintaqaviy xunrezlik hamda tasavvurga sig‘mas qatag‘onliklar tufayli insoniyat tarixining eng qattol davri deya baholanganiga guvoh bo‘lamiz.

Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi

“Katta terror” nomi bilan tarixga kirgan sobiq sho‘ro tuzumining 1937-1938-yillardagi qatag‘onliklari mamlakatimizda ham aholining ziyoli qatlami bilan birga oddiy mehnatkashlarini ham o‘z komiga tortib, ular “boy”, “dindor”, “bosmachi”, “yot unsur”, “Vatan xoini” kabi yorliqlar bilan turli balo-qazolarga giriftor etilgan.

Bu siyosatning xalqimizga keltirgan ma’naviy va moddiy zarari, salbiy oqibatlarini tasavvur etish uchun O‘zbekiston bo‘yicha 100 mingdan ziyod kishilar qatag‘onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Ular orasida nafaqat arbob va ziyolilar, balki aksariyati oddiy insonlar, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elat vakillari bor edi.

Vatanimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jonini fido etgan, siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini atroflicha o‘rganish hamda tadqiq etish, ularning xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha keyingi yillarda yurtimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 19-iyuldagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ushbu chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi tuzilgan.

Har yili oktabr oyining birinchi haftasi mamlakatimizda Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlanishi belgilandi. Mazkur haftalik doirasida xalqimizning mustaqillikka erishish yo‘lidagi ko‘p asrlik mardona kurashi, bu yo‘lda siyosiy qatag‘onga uchragan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyati hamda ularning xotirasiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari, ta’lim muassasalari va mahallalarda uch avlod uchrashuvlari tashkil etilmoqda.

– Qatag‘on millat ham, joy ham tanlamagan, – deydi navoiylik yosh tadqiqotchi Zafar Olimov. – Masalan, birgina Karmana tumanidan 1937-yilning 5-avgustidan 28-dekabrigacha bo‘lgan muddatda 41 ta qishloqdan 73 kishi qatag‘on qilib yuborilgan. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi o‘rganilganda, 5 kishi “amir amaldorining o‘g‘li va o‘zi amirlikda ishlagan”, 6 kishi “sobiq bosmachi”, 62 kolxozchiga esa shunchaki “sobiq quloq”, “savdogar”, “dindor, mulla, imom”, “qatag‘ondan yashiringan” kabi ayblovlar qo‘yilib, 9 nafari otuvga, qolganlari uzoq muddatlarga ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan.

4

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

kreativ industriya subyektlari – kreativ mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan shug‘ullanadigan jismoniy va yuridik shaxslar;

kreativ iqtisodiyot – ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo‘lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog‘i;

kreativ mahsulot – kreativ iqtisodiyot sohasida iqtisodiy qimmatga ega bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shuningdek boshqa fuqaroviy-huquqiy bitimlar obyektlari.

4-modda. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi asosiy prinsiplar

Kreativ iqtisodiyot quyidagi prinsiplarga asoslanadi:
qonuniylik;
ochiqlik va shaffoflik;
ijod erkinligi;
tenglik;
kreativ mahsulotning huquqiy muhofaza qilinishi.

5-modda. Qonuniylik prinsipi

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

6-modda. Ochiqlik va shaffoflik prinsipi

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi axborot ochiq va shaffof bo‘lishi kerak. Bundan davlat sirlarini tashkil etuvchi hamda oshkor etilishi qonun bilan cheklangan axborot mustasno.

Davlat organlari kreativ industriya subyektlari uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, shuningdek axborotdan foydalanish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan usullarda axborot olish va undan erkin foydalanish sharoitlarini yaratishi shart.

7-modda. Ijod erkinligi prinsipi

Kreativ iqtisodiyot ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligiga asoslanadi.

Barcha shaxslar kreativ industriya sohalarini tanlashda va ularning bir yoki bir nechtasida faoliyat olib borishda, shuningdek kreativ mahsulot yaratishda erkindir.

Ijod erkinligi boshqa shaxslarning sha’ni, qadr-qimmatiga va ishchanlik obro‘siga zarar yetkazishga, qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undashga yoki targ‘ib qilishga qaratilmasligi hamda ijtimoiy axloqqa zid bo‘lmasligi kerak.

8-modda. Tenglik prinsipi

Kreativ industriya subyektlari o‘z faoliyatini amalga oshirishda, shu jumladan davlat tomonidan taqdim etiladigan qo‘llab-quvvatlash choralaridan va infratuzilmadan foydalanishda tengdir.

9-modda. Kreativ mahsulotning huquqiy muhofaza qilinishi prinsipi

Kreativ mahsulot intellektual va ijodiy faoliyat natijasidir hamda u qonunchilikka muvofiq muhofaza qilinadi.

10-modda. Kreativ industriya sohalari

Ushbu Qonun maqsadlarida kreativ industriya sohalaridagi faoliyat yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
adabiy ijodni;
amaliy san’at va hunarmandchilikni;
arxitektura, loyihalashtirish va urbanistikani;
audiovizual san’atni;
ijrochilik san’atini;
konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishni;
moda va dizayn san’atini;
muzeylar, badiiy galereyalar (ko‘rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyatini;
nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatni;
ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog‘i orqali uzatish yo‘li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyatni;
prodyuserlik faoliyatini;
raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyatni;
reklama sohasidagi ijodiy faoliyatni;
san’at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyatni;
tasviriy san’atni.

2-bob. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosati

11-modda. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:
kreativ industriya sohalarida fuqarolarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
kreativ industriyani iqtisodiyotning faol tarmoqlaridan biriga aylantirish orqali kreativ mahsulotlar aylanmasini oshirish;
kreativ industriya subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda teng imkoniyatlar yaratish;
kreativ industriya sohalarini qo‘llab-quvvatlash orqali kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish;
kreativ iqtisodiyot sohasida ilm-fan va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda kreativ g‘oyalarni va loyihalarni amalga oshirishda ko‘maklashish;
kreativ industriya subyektlari uchun zarur infratuzilmani yaratish;
kreativ mahsulotlar yaratishda ilm-fan va texnologiya yutuqlaridan va innovatsion yondashuvlardan foydalanilishini ta’minlash;
mazkur sohadagi ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida kreativ industriya sohalarida ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy ta’lim dasturlarini joriy etish;
kreativ industriya subyektlarining ijodiy salohiyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha cheklovlarni bartaraf etish;
milliy madaniyat va milliy brendlarni xalqaro maydonda keng tanitilishini ta’minlash.

12-modda. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari zamonaviy yutuqlar asosida inson kapitalini, mamlakatni rivojlantirish, kreativ iqtisodiyot sohasida yagona davlat siyosatini olib borish maqsadida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari yaqin va uzoq muddatli istiqbol uchun qabul qilinishi mumkin.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari davlat va jamiyat oldida turgan maqsadlar hamda vazifalarni, tegishli davr uchun mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlarni, shuningdek ularni amalga oshirish bo‘yicha harakatlar rejalarini belgilaydi.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalarining loyihalari davlat organlarining, ilmiy tashkilotlarning, kreativ industriya subyektlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va ekspertlarning takliflari asosida ishlab chiqiladi.

3-bob. Kreativ iqtisodiyot sohasini tartibga solish

13-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kreativ iqtisodiyot sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
kreativ iqtisodiyot sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;
kreativ iqtisodiyotni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini va ularni taqdim etish tartibini belgilaydi;
kreativ industriya sohalaridagi iqtisodiy faoliyat turlarini belgilaydi;
kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalarini va davlat dasturlarini tasdiqlaydi;
kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;
kreativ iqtisodiyot sohasidagi zarur infratuzilmani yaratish choralarini ko‘radi;
kreativ industriya parkini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi;
respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kreativ iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashining faoliyati tartibini belgilaydi.
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

14-modda. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi (bundan buyon matnda Respublika kengashi deb yuritiladi) kreativ industriya sohalarini rivojlantirish bo‘yicha jamoatchilik asosida faoliyat olib boradigan maslahat organidir.

Respublika kengashining tarkibi kreativ industriya sohalari bo‘yicha tegishli davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, kreativ industriya sohalaridagi yetakchi tadbirkorlar hamda xalqaro va mahalliy ekspertlardan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Respublika kengashi:
kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish va kreativ industriya sohalarini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;
kreativ industriya sohalaridagi iqtisodiy faoliyat turlarini belgilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;
kreativ industriyaning istiqbolli yo‘nalishlari va o‘sish nuqtalarini aniqlaydi;
kreativ industriya parki faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi hamda ularning faoliyati to‘g‘risidagi axborotni eshitadi.

Respublika kengashining ishchi organi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi hisoblanadi.

15-modda. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kreativ iqtisodiyot sohasidagi vakolatlari

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘z vakolatlari doirasida:
kreativ iqtisodiyot sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;
kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishini ta’minlaydi;
kreativ mahsulotlarni shakllantirish va kreativ iqtisodiyot sohasini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etadi;
o‘z tasarrufidagi kreativ industriya subyektlarining kreativ mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surishga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining kreativ iqtisodiyot sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlari doirasida:
hududlarda kreativ iqtisodiyot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;
hududlarda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
kreativ iqtisodiyot sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi;
kreativ industriya subyektlari faoliyatiga ko‘maklashadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

17-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga doir faoliyatda ishtirok etishi

Nodavlat notijorat tashkilotlari:
kreativ industriya subyektlariga o‘z ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadi;
kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslar va takliflar ishlab chiqadi;
kreativ iqtisodiyot sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etadi.

4-bob. Kreativ iqtisodiyotni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

18-modda. Kreativ iqtisodiyotni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari

Davlat kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishni hamda kreativ industriya sohalarida qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhiti yaratilishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi.

Kreativ iqtisodiyotni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash quyidagi choralarni o‘z ichiga oladi:
kreativ industriya subyektlari uchun soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda imtiyozlar berishni;
davlat subsidiyalari, davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalari tizimi orqali moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni;
infratuzilmadan va davlat mulkidan foydalanishda imtiyozlar berishni;
kreativ industriya subyektlarini axborot bilan ta’minlashni;
kreativ industriya subyektlarining mol-mulkini himoya qilishni, intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazishni, intellektual mulk sohasiga oid tartib-taomillarni soddalashtirishni.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

19-modda. Kreativ industriya subyektlariga imtiyozlar va preferensiyalar

Davlat kreativ industriya subyektlariga soliqlar hamda boshqa to‘lovlar va tariflar bo‘yicha imtiyozlar va preferensiyalar berishi mumkin.

20-modda. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi ta’limni qo‘llab-quvvatlash

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi ta’limni qo‘llab-quvvatlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:
kreativ industriya sohalaridagi kadrlarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga doir davlat ta’lim standartlarini hamda ta’lim dasturlarini takomillashtirish;
kreativ industriya sohalaridagi ta’lim tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
kreativ industriya sohalarida dual ta’limni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning uzviy bog‘liqligini ta’minlash;
yetakchi xalqaro ta’lim tashkilotlari bilan birgalikda sohaga oid ixtisoslashtirilgan qo‘shimcha ta’lim dasturlarini yaratish;
o‘quv-uslubiy, ilmiy va amaliy adabiyotlarni yaratish.

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi ta’limni qo‘llab-quvvatlash qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

21-modda. Kreativ mahsulotlarni yaratishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ommalashtirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

Davlat milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ommalashtirishga, O‘zbekiston xalqining ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlashga hamda boyitishga, madaniy merosni muhofaza qilishga, shuningdek yoshlarda vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan kreativ mahsulotlar yaratilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

5-bob. Kreativ iqtisodiyot infratuzilmasi

22-modda. Kreativ iqtisodiyot infratuzilmasining tarkibi

Kreativ iqtisodiyot infratuzilmasi sohani qo‘llab-quvvatlashga hamda rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va raqamli resurslar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Kreativ iqtisodiyot infratuzilmasi kreativ industriya parklari, kreativ industriya klasterlari, kreativ industriya art-rezidensiyalari, markazlari, innovatsion uskunalar va texnologiyalar, raqamli dasturlar va platformalar shaklida hamda boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin.

23-modda. Kreativ industriya klasterlari

Kreativ industriya klasteri tegishli hududda kreativ mahsulotlarni yaratishda ishtirok etadigan, samarali hamkorlik qilish, quvvatlardan birgalikda foydalanish, bilimlar va ko‘nikmalar almashish maqsadida tuziladigan kreativ industriya subyektlarining yig‘indisidan iborat bo‘lgan tashkiliy-huquqiy tuzilmadir.

Kreativ industriya klasterlari davlat yoki xususiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilishi mumkin.

Kreativ industriya klasterlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:
ichki va tashqi bozorlarda talab qilingan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratish uchun kreativ industriya subyektlarining salohiyatini birlashtirish;
kreativ industriya subyektlari uchun ta’lim, maslahat va axborot xizmatlarini tashkil etish;
kreativ faoliyat natijalarini bozorda birgalikda ilgari surish.

Kreativ industriya klasterlari qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa yo‘nalishlarda ham faoliyat olib borishi mumkin.

24-modda. Kreativ iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari

Kreativ iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari ichki va tashqi bozorlarda kreativ industriya sohalaridagi loyihalarni yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish maqsadida tashkil etiladi.

Kreativ iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalarining mablag‘laridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:
kreativ iqtisodiyot sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish;
kreativ industriya sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirish va tijoratlashtirish;
kreativ industriya subyektlarini moliyaviy jihatdan rag‘batlantirish, kadrlarning malakasini oshirish va ushbu subyektlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Kreativ iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari qaytarish shartlari asosida yoki beg‘araz asosda mablag‘lar ajratishi, shuningdek kreativ industriya subyektlarining majburiyatlari bo‘yicha kafil sifatida ish yuritishi mumkin.

Kreativ iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

6-bob. Kreativ industriya parki

25-modda. Kreativ industriya parkini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish, monitoring qilish va baholash tartibi

Kreativ industriya parkini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Kreativ industriya parkini boshqarish direksiya tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika kengashi kreativ industriya parki faoliyatini monitoring qilish va baholashni amalga oshiradi.

Kreativ industriya parki direksiyasi Respublika kengashiga o‘z faoliyati va uning natijalari to‘g‘risida yiliga kamida ikki marta axborot taqdim etadi.

26-modda. Kreativ industriya parkining vazifalari

Kreativ industriya parkining vazifalari quyidagilardan iborat:
kreativ industriyani rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
kreativ iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish;
kreativ industriya parki rezidentlari uchun zarur resurslar va infratuzilma mavjudligini ta’minlash;
kreativ industriya mahsulotlari aylanmasi va eksportini ko‘paytirish uchun ekotizimni rivojlantirish, shu jumladan elektron platformalar va onlayn-bozorlar yaratish, shuningdek ularni xalqaro platformalarga integratsiya qilish;
kreativ industriya sohalarida ish o‘rinlarini yaratish;
kreativ industriya sohalarida mehnat bozori tahlilini olib borish va mazkur sohada kadrlarni tayyorlashga, ularning malakasini oshirishga, shu jumladan nazariy va amaliy bilimlar hamda ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishga ko‘maklashish;
kreativ industriya sohalarida innovatsiyalarni va ijodkorlikni rag‘batlantirish.

27-modda. Kreativ industriya parki rezidentlarining huquq va majburiyatlari

Kreativ industriya parki rezidentlari quyidagi huquqlarga ega:
kreativ industriya parki infratuzilmasidan foydalanish, shu jumladan umumiy ish joylaridan va jihozlardan foydalanish;
tadbirkorlikni rivojlantirish va intellektual mulkni muhofaza qilish bo‘yicha konsalting xizmatlarini olish;
ta’limni va yangi g‘oyalarni takomillashtirish hamda kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish yuzasidan (akseleratsiya) kreativ industriya parki direksiyasi tomonidan tashkil etilgan dasturlarda ishtirok etish.

Kreativ industriya parkining rezidentlari:
O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etishi;
kreativ industriya parki resurslaridan oqilona foydalanishi;
kreativ industriya tegishli sohalari bo‘yicha mahorat darslarini tashkil etishi shart.

Kreativ industriya parki rezidentlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

28-modda. Kreativ industriya parkining rezidentlari

Kreativ industriya sohasidagi biznes rejasi kreativ industriya parki direksiyasi tomonidan ma’qullangan va jami yillik daromadining kamida sakson foizini kreativ industriya sohasidagi faoliyatidan olingan daromad tashkil etadigan kreativ industriya subyektlari kreativ industriya parkining rezidentlari bo‘lishi mumkin.

Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar kreativ industriya parkining rezidenti bo‘lishi mumkin emas.

Kreativ industriya parki rezidentlarining zimmasiga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablar ham yuklatilishi mumkin.

29-modda. Kreativ industriya parkining boshqa subyektlar bilan hamkorligi

Kreativ industriya parki ta’lim va ilmiy tashkilotlar, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Kreativ industriya parki direksiyasi tajriba almashish, investitsiyalarni jalb qilish va boshqa maqsadlarda qonunchilikda belgilangan tartibda mahalliy va xalqaro sheriklar bilan bitimlar tuzishi mumkin.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Kreativ iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini shakllantirish va ulardan foydalanish

Statistika organlari kreativ iqtisodiyotning holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarning hisobini, shu jumladan:
kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining, shu jumladan kreativ mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va tashqi savdo aylanmasi hajmining;
kreativ industriya subyektlari sonining;
kreativ industriya sohalaridagi bandlikning;
kreativ startaplar va loyihalarga investitsiyalar hajmining hisobini yuritadi.

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining samaradorligini baholash kreativ iqtisodiyot ko‘rsatkichlari tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

31-modda. Xalqaro hamkorlik

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlik xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni o‘rnatish hamda rivojlantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

32-modda. Nizolarni hal etish

Kreativ iqtisodiyot sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

33-modda. Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

34-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Madaniyat vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

35-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

36-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 3-oktabr
№ O‘RQ—970

IJTIMOIY YO‘NALTIRILGAN BOZOR IQTISODIYOTI — KUCHLI IJTIMOIY SIYOSATNING ASOSI

O‘zbekiston XDP Xalq demokratik partiyasi

Huquqlar, imkoniyatlar tengligi, har bir inson farovonligiga intilish davlat va jamiyat barqaror rivojlanishining muhim, ustuvor mezonlaridan hisoblanadi.

Dunyoda hukm surayotgan murakkab hozirgi sharoitda bu masalaning qadr-qimmati, ahamiyati yanada ortgan. Binobarin, ijtimoiy tengsizlik, aholi turli qatlamlari o‘rtasida tafovutlar paydo bo‘lishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.



Iqtisodiyotning barqaror ravnaq topishi uchun ham davlat ijtimoiy adolatni ta’minlashi, boshqacha aytganda, ijtimoiy himoya mexanizmlarining keng qamrovini va izchilliligini kafolatlashi kerak.

BMT Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda 15 yoshgacha bo‘lgan 1,4 milliard bolaning ijtimoiy huquqlari ta’minlanmagan. Dunyo aholisining atigi 29 foizi ijtimoiy himoya tizimlari bilan yetarli darajada qamrab olingan bo‘lsa, 55 foizi bu qamrovga to‘liq ega emas.

Ma’lumki, shunday sharoitda qator mamlakatlar hukumatlari bozor iqtisodiyotining ijtimoiy tengsizlik va kambag‘allikka olib keladigan jarayonlarini jilovlash maqsadida davlatning ijtimoiy siyosatini kuchaytirishga e’tibor qaratmoqda.

Kezi kelganda ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston bugun jahon minbarlarida har bir fuqarosi uchun g‘amxo‘rlik qiladigan ijtimoiy davlat sifatida e’tirof etilmoqda.

Aholiga malakali va sifatli tibbiy xizmatni yaqinlashtirish maqsadida tizimda olib borilayotgan islohotlar ham, ochig‘i, biroz qiyin kechayotgan bo‘lsa-da, asta-sekin bo‘y ko‘rsatmoqda.

Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a’zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda ham yil sayin o‘sish dinamikasi kuzatilmoqda.

O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi konstitutsiyaviy maqomini ta’minlashda davlat boshqaruvi idoralari bilan bir qatorda nodavlat institutlar, jamoatchilik, asosiysi, siyosiy partiyalar birinchilar safida puxta o‘ylangan, natijador taklif-tashabbuslarning ijodkorlari bo‘lmog‘i kerak.

Shu ma’noda, Xalq demokratik partiyasi **bozor iqtisodiyotining ijtimoiy samaradorligini oshirish**ga urg‘u berib kelayotgani, yangi Saylovoldi dasturida ham bu yo‘nalishda aniq, hayotiy va xalqchil takliflarni kiritgani zamirida bir haqiqat turibdi. Bu **insonparvarlik, tenglik g‘oyalarini islohotlarga chuqur singdirish, ijtimoiy adolat va birdamlikni hamma narsadan ustun qo‘yish** maqsadi bilan bog‘liq.

Davlatning faol roli va ishtiroki muhim

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi **iqtisodiyotni ijtimoiy barqarorlikni ko‘zlab rivojlantirish muhim**, deb hisoblaydi.

Chunki dunyo tajribasidan ayonki, erkin bozor qonunlari ba’zan ijtimoiy tafovutlarning, tengsizlikning chuqur ildiz otishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa ijtimoiy davlat barpo etish uchun to‘siqdir. Qolaversa, samarali boshqaruvga ega davlatning asosiy tartibga soluvchilik roli bozor munosabatlarini rag‘batlantirib, ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiradi. Bozor munosabatlarini tartibga solish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash jarayoni davlat ishtirokisiz bo‘lmaydi.

Ammo **UzLiDeP** Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan iqtisodiyotda davlat ishtirokini keskin qisqartirish, davlat mulkini xususiylashtirish orqali xususiy sektor ulushini oshirish g‘oyasi bizning pozitsiyamizga zid, deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, **iqtisodiyotda davlatning ishtiroki bo‘lishi shart, davlat tartibga soluvchi va tashabbuskorligidan voz kechmasligi lozim**.

Bundan tashqari, davlat mulkini xususiylashtirishga doir taklifga ham to‘liq qo‘shila olmaymiz. Masalan, strategik ahamiyatga ega korxona va zavodlarni xorijiy investorlarga topshirish salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu davlatning boshqaruvchilik salohiyatiga va ijtimoiy hayotni tartibga solish mexanizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, deb o‘ylaymiz.

Davlatning **iqtisodiyot va ijtimoiy sohada faol ishtirok etishi** iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, energetika, transport va mudofaa sanoati kabi strategik muhim tarmoqlar ustidan davlat nazorati ularning milliy manfaatlarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xorijiy yoki xususiy manfaatlar nazorati ostiga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Mamlakat aholisi har yili qariyb bir millionga ko‘paymoqda, bu davlat oldiga yangi maktablar va shifoxonalar, ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish majburiyatini qo‘yadi. Bandlikni qo‘llab-quvvatlash, asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarini tartibga solish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini himoya qilish singari keng ko‘lamli vazifalarni ham faqat davlat samarali hal eta olishi mumkin.

Samarali davlat nazorati iqtisodiyotda monopoliyani cheklash va adolatli raqobatni ta’minlash, yangi texnologiyalarni joriy qilish, infratuzilmalarni rivojlantirish sohalariga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish imkonini beradi.

O‘zbekistonning iqtisodiy strategiyasi 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish va global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlati qatoriga kirish va bu ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, davlat ishtiroki hamda nazorati muhim.

Zotan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 65-moddasida ham davlat bozor munosabatlarini rivojlantirishi va halol raqobat uchun shart-sharoit yaratishi aniq belgilab qo‘yildi.

XDP faollari **bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy islohotlarning samaradorligini oshirish uchun davlatning asosiy tartibga soluvchi rolini kuchaytirishni hayotiy zarurat**, deya hisoblab kelishi bejiz emas.

Barqarorlik va farovonlik kafolati

Mutaxassislarning fikricha, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti shunday tizimki, u, bir tomondan, erkin bozorning o‘zini o‘zi tartibga solish tamoyillariga asoslansa, ikkinchi tomondan, xususiy tadbirkorlik va nodavlat sektorning oddiy odamlarga xizmat qilishini ta’minlaydi. Bozor iqtisodiyotining bu shaklida yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni qayta taqsimlashda davlat muhim rol o‘ynaydi.

Dunyo davlatlari tajribasiga nazar solsak, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuritishda yetakchilardan sanalgan Skandinaviya o‘lkalari (Daniya, Shvetsiya, Norvegiya), Finlyandiya, Niderlandiya, Germaniya kabi mamlakatlarda iqtisodiy samaradorlikka muhim asos sifatida qaraladi, biznesning ijtimoiy mas’uliyati belgilanib, ijtimoiy himoya amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq konstitutsiyaviy normalar bir necha barobar ko‘paydi. Xususan, aholining ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash, fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish, kafolatlangan tibbiy yordamga bo‘lgan huquqni ro‘yobga chiqarish, ta’limning barcha shakliga g‘amxo‘rlik qilish, hamma uchun teng imkoniyatlar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash mustahkamlab qo‘yildi.

Tabiiyki, har bir inson uchun farovon turmush darajasini vujudga keltirish, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimini yo‘lga qo‘yish, boshqacha aytganda, ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun Davlat byudjeti hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Soliqlar evaziga hosil bo‘ladigan Davlat byudjetidan samarali foydalanish har qachongidan dolzarb tus olgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Davlat byudjetini shakllantirish, uning daromad va xarajat qismlarini belgilash va ijrosini ta’minlashda fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta’minlash, bu yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun huquqiy kafolatlar yaratildi.

Yuqoridagi omillarni, davlatning iqtisodiy qudrati, avvalo, byudjetga bevosita bog‘liqligini inobatga olib, vazirlik va idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko‘rsatish yoki qonuniy belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarga **jarimalar solish natijasida tushadigan barcha tushumni to‘liqligicha Davlat byudjetiga yo‘naltirish** hozirgi pallada har tomonlama to‘g‘ri yechim bo‘ladi. Ushbu taklif davlatning ijtimoiy majburiyatlarini samarali uddalashida imkoniyatlarni kengaytirishga muhim turtki beradi.

Aholining ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash va ularning ijtimoiy himoyasi haqida gap ketganda “Adolat” partiyasi Saylovoldi dasturidagi fuqarolarning uy-joyli bo‘lishga oid huquqlarini ro‘yobga chiqarishda subsidiyalar tizimini takomillashtirish borasidagi taklif o‘zini oqlamaydi. Bizningcha, bu borada boshqa samarali iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlar bor. **Xalq demokratik partiyasi mazkur yo‘nalishda, masalan, ijtimoiy uy-joylar barpo etishni taklif qilmoqda. Biz taklif qilayotgan yangi mexanizm ehtiyojmand, kam daromadli fuqarolar uchun yanada samaraliroq hisoblanadi**.

Ijtimoiy tenglikni ta’minlash

XDP **daromad va ularning manbalaridan qat’i nazar, boylikning haddan tashqari konsentratsiyasiga adolatli soliq solish tizimini joriy qilishni** maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

Bunday choralar ayrim rivojlangan mamlakatlarda aholining iqtisodiy tabaqalashuvining oldini olishga xizmat qilgan. Masalan, AQShda yillik daromadi 11 ming dollardan kam bo‘lgan fuqarolarga 10 foizli soliq stavkasi qo‘llanadi, 578 ming dollardan yuqori daromadlilar esa 37 foiz stavka bo‘yicha soliq to‘laydi. Xitoyda 36 ming yuandan kam topganlar 3 foiz, 960 ming yuandan ortiq topganlar esa 45 foiz soliq to‘laydi. Fransiyada oila a’zolarining qo‘shma daromadlari inobatga olinadi: 11 294 yevrodan kam olayotganlar soliq to‘lamaydilar, ammo 177 106 yevrodan ortiq daromadlilar 45 foiz stavka bo‘yicha soliq to‘laydilar.

Boylikning haddan tashqari konsentratsiyasiga adolatli soliq solish tizimi yuqori daromad va boylikka ega bo‘lgan shaxslarni soliqqa tortish orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi.

Demak, bunday soliq to‘lash har bir shaxsning mol-mulkka ega bo‘lish huquqiga daxl qilmaydi, aksincha, davlat va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shishdek oliyjanob fuqarolik burchini bajarishiga imkon beradi. Zero, to‘langan soliqlar hisobidan maktab, bog‘cha, shifoxonalar, yo‘llar kabi ijtimoiy obyektlar barpo etiladi, nogironligi bo‘lgan shaxslar va ehtiyojmand aholi qo‘llab-quvvatlanadi.

Shaffoflik kerak

Davlat xaridlari davlat, jamiyat va biznes o‘rtasidagi munosabatlarning sifatini aks ettiruvchi muhim jarayon sanaladi. Davlat organlari va muassasalari byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishi lozim.

Bugungi kunda jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat xaridlari tizimini takomillashtirmay turib, iqtisodiy samaradorlik, biznes subyektlari o‘rtasida halol raqobat, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yuqori natijalarga erishish qiyin.

Mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini ochiqlik va shaffoflik tamoyiliga muvofiqlashtirish, shu orqali korrupsiya va uning oqibatlariga, “yashirin iqtisodiyot”ga qarshi kurashish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu borada normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirilib, xaridlar tizimi raqamlashtirilmoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunbuzilish holatlari uchrab turgani bor gap.

Bunday vaziyatlarning oldini olish va shaffoflik bo‘lishi uchun davlat xaridlari sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirish, shuningdek, jarayonda ishtirok etuvchi taraflarning **shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini monitoring, tahlil va nazorat qilishning kompleks tizimini** yaratish eng maqbul choralardan, albatta.

Sohada **jamoatchilik nazoratini kuchaytirish** davlat xaridlari jarayonidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga sharoit yaratadi.

Ko‘rib turganimizdek, bir-biriga halqa misoli bog‘langan bu jarayonlar pirovardida ijtimoiy himoya tizimi samaradorligiga olib keladi. **Xalq demokratik partiyasi davlat xaridlari tizimida shaffoflikni hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni o‘ta muhim**, deb hisoblaydi.

Ijtimoiy siyosatning “barometri”

Xalqaro mehnat tashkilotining ma’lum qilishicha, 2024-yilda dunyo bo‘yicha ishsizlar soni ikki millionga oshishi va global ishsizlik darajasi hozirgi 5,1 foizdan 5,2 foizga ko‘tarilishi kutilmoqda. “Katta yigirmatalik” davlatlarining ko‘pida ixtiyoriy daromadlar kamayadi va inflyatsiya natijasida turmush darajasining pasayishi qisqa muddatda deyarli tiklanmaydi.

Dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham bu masala juda dolzarb. Mana shunday sharoitda aholining bandlik darajasini ko‘tarish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Binobarin, bandlik sohasiga ijtimoiy siyosatning “barometri” deya ta’rif berish mumkin.

E’tiborlisi, bu sohada O‘zbekistonda yetarli tajriba to‘plandi, ijtimoiy-iqtisodiy faollik ortdi. Lekin o‘zgarishlarga qaramay, vaqtincha ishsiz fuqarolar, asosan, yoshlar va xotin-qizlar manfaatlarini himoyalash muhim.

Xalq demokratik partiyasi bu borada **ishsizlik bo‘yicha majburiy ijtimoiy sug‘urta milliy modelini joriy etishni** taklif qilmoqda. Bu shunday tizim bo‘ladiki, ish topishda qiynalayotgan, turli sabablar bilan ish joyidan ayrilgan, vaqtincha ishsizlar qatorida turgan insonlar manzilli qo‘llab-quvvatlanadi. Ayni paytda u fuqarolarni boqimandalikka emas, ijtimoiy-iqtisodiy faol bo‘lishga undaydi.

Iqtisodiy taraqqiyotning lokomotivi

Milliy iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishida investitsiyalar oqimini kengaytirish, buning uchun zarur iqtisodiy-huquqiy sharoitni yaratish muhim.

Iqtisodiyotimizga mablag‘ kiritish istagida bo‘lgan har qanday investorni, birinchi navbatda, sharoit, imkoniyat qiziqtiradi. Ayniqsa, qanday imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilgani ham ahamiyatli.

Keyingi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o‘sdi. O‘tgan yil yakuni bo‘yicha bu o‘sish 5,5 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Investitsiyalar iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirish maqsadida **mahalliy investorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish** dolzarb ekanini ta’kidlash joiz. Bu Saylovoldi dasturimizdagi muhim tashabbuslardan biridir.

Sodda qilib aytganda, xorijiy investorga ham, mahalliy investorga ham bir ko‘z bilan qaralishi muhim. Bu eksportbop sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, tarmoqlararo kooperatsiyani chuqurlashtirish va qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni isloh qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash haqida gap ketganda, O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturining iqtisodiyot sohasidagi ayrim tashabbuslari tadbirkorlar, xususan, fermerlar uchun salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, partiyaning “2030-yilga qadar pestitsidlardan foydalanish hajmini 50 foiz kamaytirish” to‘g‘risidagi taklifi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar olib kelishi mumkin. Fermer, dehqonlarimiz turli zararkunanda jonzotlar va hasharotlardan hamda o‘simliklardan himoya qilish uchun pestitsidlar ishlatishga majbur. Bo‘lmasa, mahsulot nobud bo‘lishi yoki hosilga zarar yetishi mumkin. Umuman olganda, mazkur taklif iqtisodiy samaradorligi jihatidan Ekopartiya tomonidan chuqur o‘ylanmasdan ko‘tarib chiqilgan masala, deb hisoblaymiz.

XULOSA O‘RNIDA

Saylovoldi targ‘ibot kampaniyasi qizg‘in davom etayotgan davrda saylovchilar, yurtdoshlarimiz siyosiy partiyalarning dasturiy maqsad-g‘oyalari bilan yaqindan tanishmoqda, o‘rganmoqda, taqqoslamoqda.

Iqtisodiyotimiz rivojining hozirgi bosqichida islohotlarning ijtimoiy samaradorligini oshirish, har bir inson orzu-maqsadlariga yetishi uchun sharoit va imkoniyat yaratish, turmush farovonligi bo‘yicha davlatning hisobdorligini oshirish dolzarb ahamiyatga egadir.

Partiyamiz Saylovoldi dasturida bu bo‘yicha aniq, hayotiy taklif-tashabbuslar ilgari surilgan.

Iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy samaradorligi uchun Xalq demokratik partiyasiga va nomzodlariga ovoz bering!

To‘lqin TO‘RAXONOV,
O‘zbekiston XDP Markaziy Kengashi raisi o‘rinbosari,
Qizilgul QOSIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI VA DEPUTATLIKKA NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

POYTAXTIMIZDA VIII BUTUNJAHON PAXTA TADQIQOT KONFERENSIYASI ISH BOSHLADI

1 Tadbirda ishtirokchilar paxta yetishtiruvchi davlatlarda paxtachilik va to‘qimachilik sanoati sohasidagi tadqiqotlarda erishilayotgan so‘nggi yutuqlar bilan tanishdi. G‘o‘za parvarishida global iqlim o‘zgarishi hamda mintaqaviy muammolar muhokamasi o‘tkazilib, yechimlari bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, paxtachilik sohasida jahonda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, joriy etilayotgan ilg‘or texnologiyalar olimlar tomonidan taqdimotlar orqali xalqaro paxtachilik hamjamiyatiga tanishtirildi.

– Dunyodagi nufuzli xalqaro paxtachilik tashkilotlarining Toshkentdagi uchrashuvi sohani barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, – dedi Pokiston Multon paxtachilik instituti direktori G‘ulom Sarvar. – Bugun biz, olimlar zimmasida global iqlim o‘zgarishlari, qurg‘oqchilik, sho‘r va issiqqa chidamli g‘o‘za navlarini yaratishdek mas’uliyatli vazifa turibdi. Bu anjumanning O‘zbekistonda o‘tkazilayotganining boisi esa mamlakatda shunday qurg‘oqchilikka chidamli navlar yaratilmoqda va biz bu navlarni o‘rganishimiz kerak. Paxtachilikdagi dunyo olimlarining bu hamkorligi to‘qimachilik sanoatini sifatli xomashyo bilan ta’minlash imkoniyatini beradi.

Faxriddin BOZOROV (“Xalq so‘zi”).

O‘zbekiston mahalla tizimi dunyo nigohida

1 Mahallada kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so‘m kam foizli kredit, 7 trillion so‘m subsidiya berildi. Bunday yuksak marralarga erishishda O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro tajriba almashish, birgalikda turli dastur va loyihalarni amalga oshirish orqali yaqin hamkorlikni izchil davom ettirishdan manfaatdor.



Yalpi majlisdan so‘ng konferensiya shu’balarga bo‘lingan holda davom etdi. Shu’ba majlislarida “Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari tajribasi”, “Davlat boshqaruvida o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni”, “O‘zini o‘zi boshqarish organlarida xotin-qizlar, yoshlar va bolalar manfaatlarining ta’minlanishi”, “O‘zini o‘zi boshqarish organlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish” kabi mavzular muhokama qilindi.

Anjumanda muhokama etilgan mavzular yuzasidan ishtirokchilar tomonidan yakuniy xulosalar bayon qilindi, o‘zaro hamkorlik, tajriba almashishga kelishib olindi. Shu’ba majlislari xulosalari asosida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, BMTning yurtimizdagi vakolatxonasi va boshqa hamkor xalqaro tashkilotlar tomonidan konferensiyaning yakuniy deklaratsiyasi imzolandi.

Xalqaro konferensiya doirasida ishtirokchilar uch guruhga bo‘lingan holda Samarqand shahridagi Devori Ko‘ndalang, Charimgari hamda Samarqand tumanidagi Konigil mahallalari va mahalla cervis kompaniyalari faoliyati bilan tanishib, o‘zaro tajriba almashadi. Xorijlik mehmonlar Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylarini ko‘zdan kechirish imkoniga ham ega bo‘ladi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV (“Xalq so‘zi”).



MILLAT TANLAMAGAN QABOHAT

Tarixning mash’um kunlari har birimizni hushyorlikka va xulosa chiqarishga undaydi

1 “Katta terror” davrida Navoiy viloyatining hududi Samarqand va Buxoro okruglariga tegishli bo‘lib, ushbu ma’muriy birliklarda 1937-1938-yillarda 885 ta jinoiy ish ko‘rib chiqilgan. Unga ko‘ra, Zarafshon vohasida tug‘ilib o‘sgan 1604 nafar vatandoshimizdan 651 nafari otuv, 897 nafari 10 yil, 36 nafar kishi 8 yil ozodlikdan mahrum etish jazolariga hukm qilingan. 2 kishi hibsda vafot etgan bo‘lsa, bor-yo‘g‘i 10 kishigina keksaligi tufayli ozod qilingan, ular ham 80 yoshdan oshgan qariyalar bo‘lgan.

“Xalq dushmanlari” sifatida jazolanganlar orasida 8 nafar ayol ham bo‘lib, ularga “jinoyatchining xotini bo‘lganligi”, “jinoyatchi bilan birga yashaganligi”, “erining jinoyatini bilgani holda sovet ichki ishlar organlariga bildirmaganligi” uchun kabi ayblar qo‘yilib, 8 yildan 10 yilgacha muddatga qamoq jazosi belgilangan. 1937-yil 15-avgustdagi “Vatan xoinlarining xotinlari va bolalarini repressiya qilish” to‘g‘risidagi buyruqqa ko‘ra, “xalq dushmanlari”ning xotinlari va bolalari Sibir va Uzoq Sharq hamda Qozog‘iston Respublikasidagi maxsus lagerlarga jo‘natilgan. Farzandlarining 15 yoshdan oshganlari qamoqxonalarda, balog‘atga yetmaganlari esa maxsus koloniyalarda saqlanib, ularning ongiga ota-onasining “xalq dushmani” ekani, bunday otadan voz kechish lozimligi to‘g‘risidagi fikrlar turli ruhiy va jismoniy ta’sirlar orqali majburiy ravishda singdirilgan.

– Tadqiqotlarimizda Obloqul Omonov Krasnoyarsk o‘lkasidagi qamoqxonalarda soxta ayblovlar tufayli 10 yil jazoni o‘tagani aniqlandi, – deydi Zafar Olimov. – Ushbu muddat tugaganidan keyin Obloqul bobo o‘z yurtiga qaytib keladi. Ammo tinchlik berilmagandan keyin yana qamalgan joyiga qaytib, u yerda 1955-yilga qadar yashashga majbur bo‘lgan. O‘sha yerda oila quradi va ikki o‘g‘illi bo‘ladi.

Obloqul boboning 1953-yilda huquqlari tiklangandan keyin oila Karmana tumanidagi Varq-1 qishlog‘iga keladi. Anastasiya Grigoryevna (turmush o‘rtog‘i, marhum) Krasnoyarsk o‘lkasida 1937-1938-yillarda repressiya qilingan O‘rta osiyoliklar juda ko‘pchilikni tashkil qilgani, ularning barchasi o‘rmon kesish ishlarida ishlagani, ko‘pchiligi och va yupun bo‘lgani uchun Sibirning nam va sovuq iqlimiga chiday olmasdan qirilib ketgani, mahbuslarning jasadlari kunduz kunlari mashinalarga yuklanib, daryoga uloqtirilganini hech qachon esdan chiqarmasligini ta’kidlagandi.

> ***“Bu siyosatning xalqimizga keltirgan ma’naviy va moddiy zarari, salbiy oqibatlarini tasavvur etish uchun O‘zbekiston bo‘yicha 100 mingdan ziyod kishilar qatag‘onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Ular orasida nafaqat arbob va ziyolilar, balki aksariyati oddiy insonlar, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elatlarning vakillari bor edi.”***

Qatag‘on qilinganlar Nurota tog‘ tizmalarining Langar qo‘rg‘onida ham og‘ir mehnatga jalb etilgan. Ushbu qo‘rg‘on dengiz sathidan ikki ming metr balandlikda joylashgan. Zaminida sheelit, shpat, kvars, granit kabi o‘nlab qazilma boyliklarni uchratish mumkin. Mazkur yer osti boyliklarini o‘zlashtirishga, asosan, o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillari nihoyasida kirishilib, dastlab yon-atrof tumanlaridan quloqlashtirilganlar kuchi bilan markazdan cho‘qqiga qadar jonli ulovlar uchun yo‘l tortilgan. Keyinchalik koreys va yahudiy millatiga mansub kishilar safarbar etilib, qazishma ishlari boshlangan. Ta’kidlash o‘rinliki, tog‘ sharoitida konchilikning o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Langarda esa barcha yumushlar – qazish, yuklash, hatto rudani yer yuzasiga olib chiqish ham qo‘l kuchida amalga oshirilgan. Keyinchalik vagonetkalar yo‘lga qo‘yilgach ham ularni yuritish qatag‘on musibatlaridan egilgan yelkalar zimmasiga tushadi. Tizzaga qadar suv bosgan shaxtalarda bu nihoyatda azob-uqubatli bo‘lib, mahkumlar shunga chidashga majbur etilgan.

– Men Langarga kelgan vaqtimda, – deya xotirlaydi mehnat faxriysi Abdulla Niyozov, – koreys, yahudiy va boshqa millat kishilari tomi tuproq bilan yopilgan yerto‘lalarda yashardi. O‘zbeklar batalyon bo‘lib, Samarqand, Qo‘shrabot, Nurota, Xatirchidan yo‘l qurib keldi. Qrim-tatar og‘aynilar kelgandan so‘ng uzunligi 150 metrcha keladigan baraklar qurildi.

Qatag‘on davri musibatlari xalqimiz boshiga ne kulfatlar solmasin, u o‘zining odamiylik va bag‘rikenglik qiyofasini yo‘qotmadi. Turli millat vakillari bilan bu ko‘rgilik og‘irliklarini baham ko‘rdi.

– Yo‘lda otam, onam, akam o‘ldi, – deya xotirlagandi o‘sha mash’um kunlarning guvohi bo‘lgan (marhum) Nuriya Ajimirzayeva. – Opam bilan ikkimiz qoldik. Langarga kelgach opam ham o‘ldi. Ming rahmat, o‘zbeklarga, ular meni olti yoshimda o‘z bag‘riga oldi. O‘zlari kibetka uyda tursa ham joy berdi. Ulg‘aytirib, turmushga chiqardi. Aslini olganda, ular ham bizga o‘xshagan quvg‘in qilingan kishilar edi. Shular bo‘lmasa, ochlikdan qirilib ketardik.

Keksalar aytgan fikrlar tasdig‘iga Langardagi ko‘hna qabristonda ro‘baro‘ kelamiz. Qariyb yer bilan tekis bo‘lgan tepaliklar ayni qirchillama yoshida ketgan yigitlar, bo‘y yetgan qizlar, norasida go‘daklarga tegishli ekanini rangi o‘chib ketgan qabr toshlaridagi yozuvlardan anglash mumkin. Na so‘rog‘i, na statistikasi yuritilgan emas. Biroq keksalar ta’kidlaganidek, qatag‘on yillari asl farzandlari, tadbirli, ilmu ma’rifatli, jonkuyar o‘g‘lonlarini bergan, adolatsizlikning uqubatlarini tortgan xalqimiz o‘zining insoniylik, asrlar davomida shakllangan insonparvarlik, mehr-shafqatlilik, saxovatpeshalik, bag‘rikenglik kabi xislatlarini yana bir bor namoyon etdi.

Temur ESHBOYEV (“Xalq so‘zi”).

REKLAMA

Investor va qurilish tashkilotlari rahbarlari diqqatiga!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi PQ-4343-qaroriga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarga zamonaviy hamda arzon uy-joylarni qurish va berish hisobidan ularni rag‘batlantirish, ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktabrda 865-qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida ichki ishlar organlari xodimlariga ko‘p kvartirali uylarni “tayyor holda topshirish” shartlarida qurish bo‘yicha investorlar yoki qurilish tashkilotlari mutasaddilari hamkorlikka taklif etiladi. Tanlovda qatnashish istagida bo‘lgan tashkilotlar vakillaridan quyidagilar talab qilinadi:

investor yoki qurilish tashkilotining nizomi va guvohnomasi;

investor yoki qurilish tashkilotining faoliyati haqida ma’lumot (3 yildan ortiq ishlagan bo‘lishi kerak);

xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan investor yoki qurilish tashkiloti to‘g‘risida ma’lumotnoma;

soliq inspeksiyasi tomonidan investor yoki qurilish tashkiloti to‘g‘risida ma’lumotnoma;

investor yoki qurilish tashkilotining moddiy-texnika bazasi to‘g‘risida ma’lumot;

qurilish rejalashtirilgan hududga loyiha taklifi (bosh reja, fasad, qavatlar rejasi, 3D ko‘rinishda);

qurilish ishlarini olib borish, qurilish muddatlari va shartlari ko‘rsatilgan tarmoq rejasi (tasdiqlangan ko‘rinishda);

qurilgan uylarning eng kamida 50 foizini ichki ishlar organlari xodimlari uchun imtiyozli arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo‘yicha hisoboti (tijorat taklifi);

loyihalanayotgan ko‘p qavatli turarjoy binosiga qo‘shimcha ravishda avtomobillar turarjoyi hamda bolalar maydonchasi bo‘lishi shart;

loyihalanayotgan ko‘p qavatli turarjoy binosining qavatlari yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori bilan maslahatlashgan holda kelishishi lozim;

qurilishi rejalashtirilayotgan ko‘p qavatli turarjoy binosi bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari bilan bog‘liq barcha xarajat investor yoki qurilish tashkilotining o‘z mablag‘lari hisobidan bo‘ladi;

Mirzo Ulug‘bek tumani, “Yalong‘och” MFY, Temur Malik ko‘chasi, 1-“A” uy manzilida joylashgan umumiy maydoni 2696 m^2 (0.2696 ga) bo‘lgan yer maydonidan 19.93 m^2 (0.1993 ga) yer maydoni turarjoy egalariga turarjoyni ko‘chirish evaziga 13,8 mlrd. so‘m kompensatsiya mablag‘lari to‘lab berilganligi sababli investor tomonidan beriladigan taklifda ushbu mablag‘ qoplab berilishi nazarda tutilishi lozim.

Mazkur shartlar bo‘yicha hamkorlik qilish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari 2024-yil 1-noyabrga qadar tanlov yuzasidan qo‘shimcha ma’lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat qilishlari mumkin.

Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 71-uy IIV JXD Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati, telefon: 71-267-65-33.

Qurilishi rejalashtirilayotgan obyektlar manzili:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga qarashli Mirzo Ulug‘bek tumani, “Yalong‘och” MFY, Temur Malik ko‘chasi, 1-“A” uy manzilida joylashgan qurilish umumiy maydoni 2696 m^2 (0.2696 ga) bo‘lgan bo‘sh yer maydoni.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga qarashli Yashnobod tumani, “Iltifot” MFY, 58-harbiy shaharcha mavzesi, 55-uy manzilida joylashgan qurilish umumiy maydoni 2614 m^2 (0,2614 ga) bo‘lgan bo‘sh yer maydoni.

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI «O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

2025-yilga quyidagi ixtisosliklar bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DSc) va stajyor-tadqiqotchilikka qabul e’lon qiladi:

Stajyor-tadqiqotchi:
08.00.02 — Makroiqtisodiyot — 1 o‘rin;
08.00.12 — Mintaqaviy iqtisodiyot — 1 o‘rin.

Tayanch doktorantura (PhD):
08.00.02 — Makroiqtisodiyot — 2 o‘rin;
08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit — 2 o‘rin;
08.00.10 — Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti — 1 o‘rin;
08.00.12 — Mintaqaviy iqtisodiyot — 1 o‘rin.

Doktorantura (DSc):
08.00.02 — Makroiqtisodiyot — 2 o‘rin;
08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit — 1 o‘rin;
08.00.12 — Mintaqaviy iqtisodiyot — 1 o‘rin.

Hujjatlar 2024-yil 15-oktabrgacha qabul qilinadi.

Stajyor-tadqiqotchi bo‘yicha o‘qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- ariza;
- pasport nusxasi;
- qisqacha biografik ma’lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta’lim magistraturasi diplomi nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati, shuningdek, ularning nusxalari;
- O‘zbekiston Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadi.

Tayanch doktoranturada (PhD) o‘qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- ariza;
- pasport nusxasi;
- qisqacha biografik ma’lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta’lim magistraturasi diplomi nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati, shuningdek, ularning nusxalari;
- O‘zbekiston Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadi.
- til bo‘yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

Doktoranturada (DSc) o‘qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- ariza;
- pasport nusxasi;
- qisqacha biografik ma’lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta’lim, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi diplom nusxasi;
- tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy ma’ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati, shuningdek, ularning nusxalari;
- til bo‘yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

Doktoranturaga talabgorlar kollegial organ tomonidan ixtisoslik bo‘yicha suhbatdan o‘tadi.

Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari, stajyor-tadqiqotchi va doktoranturaga kirish uchun suhbat 2024-yil 1 — 25-noyabr kunlari o‘tkaziladi.

Ma’lumot uchun manzil: Toshkent shahri, Islom Karimov shohko‘chasi, 49-uy. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bosh binosi 14-qavat. 14.07-xona
Telefon: 71-239-29-42.
website: www.cedr.uz. E-mail: info@cedr.uz

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.28 Topshirildi — 00.00 1 2 3 4 5 6